Abdullayeva I.M. “Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning afzalliklari”, Rahmonbayeva R.A. “Цифровая экономика и развитие человеческого капитала”. Jurnal. Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish. 3-son, 2021-yil iyun. 4–18-betlar. Bu masala haqida xorij olimlari va mutaxassislari ham o‘zlarining fikrlarini matbuotda bildirishmoqda. Masalan, Muhammad Abunayyan, “Yashil” energetika inqilobi. Saudiya Arabistonining “ACWA” kompaniyasining rahbari, Janne Harpunja, “Sarmoyadorlarni chorlagan sabab - katta ishonch”, finlandiyalik investor, yirik sanoat kompaniyalari vakili, Jan Dam, “Prezidentning o‘zi investorlarni eshitib, takliflarini so‘ramoqda”. Niderlandiyadagi yirik sanoat kompaniyalari vakili. // Yangi O‘zbekiston. Davr nafasi. 2026-yil 20-iyun, 124-son.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqotning uslublari ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlari dialektik metod asosida shakllantirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev (2026-yil 17-iyun) beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida: “Xabaringiz bor, “yashil” energetikaga katta e’tibor berib kelyapmiz. Yaqin yillarda umumiy elektr generatsiyasida uning ulushini 54 foizga yetkazishni reja qilganmiz.

Investorlarga quyosh va shamol elektr stansiyalari bilan bir qatorda energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, “yashil” energiya asosida ishlaydigan data-markazlar barpo etish taklifini ilgari suramiz”, deb ta’kidladi.

Ayniqsa, ushbu forumda yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga alohida e’tibor qaratilgani muhim ahamiyatga ega. Dunyo iqtisodiyotida dekarbonizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda ekologik barqaror energetika tizimini shakllantirish nafaqat iqtisodiy, balki strategik vazifaga aylanmoqda.

Energetika bugun alohida tarmoq emas, balki butun iqtisodiyotning tayanch infratuzilmasidir. Sanoatning rivojlanishi ham, raqamli iqtisodiyotning kengayishi ham, xorijiy investitsiyalarning oqimi ham energiya resurslarining yetarliligi bilan uzviy bog‘liq.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan [6]. Bu jarayon mulkchilik munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki mulk huquqining raqamli reyestrlar orqali rasmiylashtirilishi, davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tishi, kadastr va ko‘chmas mulk ma’lumotlarining integratsiya qilinishi, elektron auksionlar va davlat aktivlari savdolarining ochiqligi mulk huquqini himoya qilishning yangi institutsional asosini shakllantiradi.

Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mulkchilik munosabatlari ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashishi zarur. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida iqlim o‘zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi, sanoat tarmoqlarida energiya tejamkorligini ta’minlash konsepsiyasi hamda harakatlar rejasi qabul qilingani mulkdan foydalanishda ekologik samaradorlik va resurs tejamkorligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Raqamli iqtisodiyotda mulkchilik munosabatlarining mazmuni kengayadi. Avvalgi iqtisodiy tizimda mulkning asosiy obyekti moddiy resurslar bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda nomoddiy aktivlar - ma’lumotlar bazasi, dasturiy mahsulotlar, algoritmlar, brend, patent, litsenziya, elektron platforma va raqamli xizmatlar iqtisodiy qiymat yaratishning muhim manbaiga aylanmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, ko‘chmas mulk, yer uchastkalari, davlat aktivlari va korporativ huquqlarning yagona raqamli reyestrlarini takomillashtirish lozim. Raqamli reyestr mulk huquqining aniqligi, oshkoraligi va uchinchi shaxslar uchun ishonchliligini ta’minlaydi. Agar mulk huquqi elektron reyestrda aniq qayd etilsa, mulkdor o‘z mulkini sotish, ijaraga berish, garovga qo‘yish, investitsiya obyektiga aylantirish yoki meros qilib qoldirishda kamroq huquqiy xavfga duch keladi.

Ikkinchidan, mulk huquqini tasdiqlovchi ma’lumotlar kadastr, notariat, soliq, bank, sud, majburiy ijro va davlat xizmatlari tizimlari bilan integratsiya qilinishi kerak. Bu mulkdor uchun ortiqcha hujjat talab qilishni kamaytiradi, davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini tezlashtiradi va mulkiy nizolarning oldini oladi.

Uchinchidan, intellektual mulkni iqtisodiy aktiv sifatida baholash va kapitallashtirish mexanizmlari kuchaytirilishi zarur. 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish

strategiyasi qabul qilingani ushbu sohaning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini koʻrsatadi [8]. Intellektual mulkni faqat huquqiy himoya obyekti emas, balki kredit taʼminoti, litsenziyalash, franchayzing, startap kapitalizatsiyasi va eksport salohiyati manbai sifatida koʻrish maqsadga muvofiq.

Toʻrtinchidan, raqamli platformalarda mulkchilik munosabatlarini huquqiy tartibga solish zarur. Elektron savdo maydonlari, xizmat koʻrsatish platformalari, raqamli kontent bozorlari va onlayn aktivlar aylanmasi kengaygani sari platforma egasi, foydalanuvchi, kontent yaratuvchi va isteʼmolchi oʻrtasidagi mulkiy huquqlar aniq belgilanishi lozim.

Beshinchidan, raqamli aktivlar va maʼlumotlardan foydalanishda shaxsiy maʼlumotlar, tijorat siri, mualliflik huquqi va axborot xavfsizligi oʻrtasida institutsional muvozanat taʼminlanishi kerak. Chunki raqamli iqtisodiyotda maʼlumotning oʻzi iqtisodiy qiymatga ega aktivga aylanadi.

“Yashil iqtisodiyot” sharoitida mulkchilik munosabatlari faqat mulkdorning daromad olish huquqi bilan emas, balki uning ekologik masʼuliyati bilan ham belgilanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda mulkdorlik huquqi mutlaq erkinlik emas, u resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, energiya samaradorligini oshirish va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish majburiyati bilan uygʻunlashadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mulkdor oʻz mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega ekani bilan birga, mulkdan foydalanish atrof-muhitga, boshqa shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozimligi belgilangan. Bu norma “yashil iqtisodiyot” sharoitida mulkchilik munosabatlarining konstitutsiyaviy-ekologik asosini tashkil etadi.

“Yashil iqtisodiyot” sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi lozim.

Oʻzbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish jarayoni mulkchilik munosabatlarining transformatsiyalanishiga kuchli taʼsir koʻrsatmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida xususiy mulk va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining kengayishi iqtisodiyotning tarkibiy oʻzgarishlarini tezlashtirmoqda. Bu jarayon mulkdorlarning resurslardan samarali foydalanishga boʻlgan iqtisodiy manfaatdorligini oshirish orqali namoyon boʻlmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilda Oʻzbekiston yalpi ichki mahsuloti 1849,7 trln soʻmni tashkil etgan boʻlib, iqtisodiy oʻsish surʼati 7,7 foizni tashkil qildi. Mamlakat iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 48,6 foizga, sanoatning ulushi 26,8 foizga yetdi. Bu koʻrsatkichlar iqtisodiyotning bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik asosida rivojlanayotganligini koʻrsatadi. 2026-yilda yalpi ichki mahsulot qiymatini 180 milliard, eksport hajmini 40 milliard dollardan oshirish vazifasi qoʻyilgan.

Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xususiy sektorning ishtiroki, ayniqsa, energetika sohasida yaqqol namoyon boʻlmoqda. Agar 2016-yilda mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya manbalari boʻyicha oʻrnatilgan quvvati atigi 1883 MVtni tashkil etgan boʻlsa, 2025-yil yakuniga kelib mazkur koʻrsatkich 10027 MVtga yetgan. Yaʼni, oʻn yildan kam vaqt ichida yashil energiya quvvatlari 5,3 baravarga oshgan. Shu davrda quyosh energetikasi quvvati 2 MVtdan 5934 MVtgacha oʻsib, sohada xususiy investitsiyalar va yangi mulkchilik shakllarining faollashganligini koʻrsatdi.

2025-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan 12 ta quyosh va 5 ta shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvati 4682 MVtni tashkil etgan. Ushbu obyektlarning aksariyati xalqaro xususiy investorlar va davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan boʻlib, mulkchilik munosabatlarining yangi institutsional shakllari rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. 2025-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasi mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarishining 23 foiziga yetgan.

2026-yil holatiga koʻra, Oʻzbekistonning yashil energetika quvvati 8 GVtga yetgan va mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 30 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Shuningdek, 75 mingdan ortiq xonadonlarda quyosh panellari oʻrnatilgan boʻlib, ular tomonidan elektr tarmoqlariga 820 mln kVt/soat elektr energiyasi yetkazib berilgan. Bundan tashqari, 31 mingdan ziyod yuridik shaxslar taqsimlangan generatsiya tizimida ishtirok etmoqda. Bu holat mulkchilik munosabatlarining markazlashmagan shakllarini rivojlantirish, yaʼni aholi va xususiy tadbirkorlik subyektlarining energiya bozorida mulkdor sifatida ishtirokini kuchaytirganligini koʻrsatadi.

Tahlillar koʻrsatishicha, yashil iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi davlat-xususiy sheriklik hisoblanadi. Masalan, mamlakat energetika tizimi quvvati 2025-yilda 25 GVtga yetgan boʻlib, uning 3,5 GVt qismi quyosh va shamol energetikasi hissasiga toʻgʻri kelgan. Hukumat tomonidan 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 20 GVtdan ortiq darajaga yetkazish vazifasi belgilangan. Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishida xususiy investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yashil iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samarasi quyidagilarda namoyon boʻlmoqda:

- xususiy kapitalning strategik tarmoqlarga kirib kelishi;
- davlat mulkining samarali boshqaruv mexanizmlari bilan uygʻunlashishi;

- aholi va tadbirkorlik subyektlarining energiya ishlab chiqaruvchi mulkdorlarga aylanishi;
- resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish hisobiga mulkdan olinadigan daromadning oshishi;
- ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning bir vaqtning o‘zida ta’minlanishi.

Demak, amaliy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni mulkchilik munosabatlarini diversifikatsiya qilish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Natijada mulkchilik munosabatlari nafaqat iqtisodiy o‘sishning, balki ekologik barqaror rivojlanishning ham muhim institutsional omiliga aylanmoqda.

O‘zbekistonda 2020–2025-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni mulkchilik munosabatlarini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu davrda davlat mulki ustuvor bo‘lgan energetika sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mulkchilik munosabatlarining yangi shakllari vujudga keldi(1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari va yashil energiya ulushining o‘zgarishi [9] (2020–2025-yillar)

| Ko‘rsatkichlar | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. | 2025-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Qayta tiklanuvchi energiya quvvati (MVt) | 2 009 | 2 156 | 2 478 | 2 858 | 4 671 | 10 027 |
| Yashil energiya ulushi (foizda) | 7,5 | 7,0 | 9,3 | 9,6 | 15,7 | 23,0 |

1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatishicha, 2020–2025-yillarda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 2 009 MVtdan 10 027 MVtgacha oshib, qariyb 5 baravar o‘sgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda o‘sish sur’ati jadallashgan bo‘lib, bu xususiy investorlar ishtirokida qurilgan quyosh va shamol elektr stansiyalarining ishga tushirilishi bilan izohlanadi.

Ushbu o‘zgarishlar mulkchilik munosabatlarida ham sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantirdi. Agar 2020-yilgacha energetika tarmog‘ida asosan davlat mulki hukmron bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarishda xususiy va xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalar muhim o‘rin egallay boshladi. Xususan, mamlakatdagi yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarining katta qismi DXSh asosida amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval. Qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining o‘sish dinamikasi [10]

| Ko‘rsatkich | 2020-y. | 2025-y. | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|---|
| Quvvat (MVt) | 2 009 | 10 027 | 499 % |
| Yashil energiya ulushi (%) | 7,5 | 23,0 | 3,1 marta |
| Elektr energiyasida qayta tiklanuvchilar ulushi (%) | 7,5 | 23,0 | +15,5 band |

Tahlillar ko‘rsatishicha, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining o‘sishi bilan mulkchilik munosabatlarining diversifikatsiyalashuvi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. 2025-yilda mamlakatda quyosh va shamol energetikasi bo‘yicha 4 647 MVt yangi quvvatlar hamda 42 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan. Bu esa xususiy sektorning yashil iqtisodiyotdagi rolini sezilarli darajada oshirgan.

Shuningdek, yashil iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning yana bir muhim mexanizmi aholining energiya bozorida mulkdor sifatida ishtirok etishi hisoblanadi. Keyingi yillarda xonadonlarda quyosh panellari o‘rnatishni rag‘batlantirish siyosati natijasida minglab uy xo‘jaliklari elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi subyektlarga aylandi. Bu esa an’anaviy markazlashgan mulkchilik modelidan taqsimlangan mulkchilik modeliga o‘tish jarayonini boshlab berdi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda, 2020–2025-yillarda yashil energiyaning umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 7,5 foizdan 23,0 foizgacha oshgan. Bu davrda energiya intensivligi ko‘rsatkichlari ham yaxshilangan bo‘lib, iqtisodiyotning energiya samaradorligi oshgan. Natijada mulkdorlarning resurs tejamkor texnologiyalarga sarmoya kiritishdan manfaatdorligi kuchaygan.

Umuman olganda, 2020–2025-yillarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning quyidagi mexanizmlari shakllangan:

1. Energetika sohasida davlat monopoliyasini qisqartirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
2. Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish;
3. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida yashil energetika obyektlarini qurish;
4. Aholi va kichik biznesning energiya ishlab chiqaruvchi mulkdor sifatida ishtirokini rag‘batlantirish;
5. Ekologik innovatsiyalarga investitsiya kiritish orqali mulkdan foydalanish samaradorligini oshirish.

Shunday qilib, amaliy ko‘rsatkichlar tahlili 2020–2025-yillarda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining qariyb 5 baravar oshishi va yashil energiya ulushining 7,5 foizdan 23 foizgacha ko‘tarilishi mulkchilik munosabatlarini transformatsiya qilishning muhim natijasi ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon xususiy mulkning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, investitsiya faolligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Birinchidan, yer, suv, o‘rmon, yaylov va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda mulkdorlik va foydalanuvchilik huquqlari ekologik cheklovlar bilan uyg‘unlashtirilishi kerak. Mulkdor yoki foydalanuvchi resursdan daromad olish bilan birga, uning saqlanishi, qayta tiklanishi va ekologik holati uchun ham mas’ul bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya obyektlariga nisbatan mulk huquqi va investitsiya mexanizmlarini soddalashtirish zarur. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikda ushbu sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish, tadbirkorlik subyektlarini generatsiya quvvatlarini yaratishga jalb qilish, “yashil energiya” sertifikatlari tizimini rivojlantirish va energiya ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari belgilangan. Bu mulkchilik munosabatlarini yangi energetika aktivlari bilan boyitish imkonini beradi.

Uchinchidan, sanoat va ishlab chiqarish obyektlarida energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va resurs tejamkorligi mulkdan foydalanish samaradorligining muhim mezoniga aylanishi lozim. Ya’ni korxona aktivlarining samaradorligi faqat moliyaviy foyda bilan emas, balki energiya sarfi, uglerod izi, suv sarfi, chiqindi hajmi va ekologik xavf darajasi bilan ham baholanishi kerak.

To‘rtinchidan, “yashil” aktivlarni moliyalashtirish mexanizmlari rivojlantirilishi lozim. Qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari, energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik toza transport, suv tejovchi texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash obyektlariga investitsiya kiritishda soliq imtiyozlari, subsidiyalar, “yashil” kreditlar va “yashil” obligatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, davlat aktivlari va xususiy korxonalarni boshqarishda ESG mezonlari - ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlari joriy etilishi lozim. Bu yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi jamiyatlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi(3-jadval).

3-jadval. Raqamli va “yashil” iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari

| Yo‘nalish | Taklif etilayotgan mexanizm | Kutiladigan natija |
|---|---|---|
| Raqamli kadastr | Yer, bino-inshoot, davlat aktivlari va korporativ huquqlar bo‘yicha yagona elektron reyestrni rivojlantirish | Mulk huquqi aniqligi, shaffoflik va iqtisodiy aylanmaga kirish imkoniyati oshadi |
| Elektron mulk aylanmasi | Mulkni sotish, ijaraga berish, garovga qo‘yish va auksion savdolarini raqamlashtirish | Korrupsiya xavfi kamayadi, mulk bozorida raqobat kuchayadi |
| Intellektual mulk kapitallashuvi | Patent, tovar belgisi, dasturiy mahsulot va litsenziyalarni baholash hamda iqtisodiy aktiv sifatida hisobga olish | Startaplar, innovatsiya va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar rivojlanadi |
| Ma’lumotlar mulki | Ma’lumotlar bazasi, raqamli kontent va platformalarda huquqlar taqsimotini belgilash | Raqamli xizmatlar bozorida huquqiy aniqlik ta’minlanadi |
| Yashil aktivlar | Qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejovchi uskunalar va ekologik infratuzilma obyektlariga mulk huquqini rivojlantirish | Energiya xavfsizligi va ekologik samaradorlik oshadi |
| ESG boshqaruvi | Davlat ishtirokidagi va yirik xususiy korxonalarda ESG hisobotlarini joriy etish | Investorlar ishonchi va xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi |
| Ekologik majburiyatlar | Yer, suv va tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik cheklov va monitoringni kuchaytirish | Resurslardan tejamkor foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish ta’minlanadi |
| Yashil moliya | Yashil kredit, yashil obligatsiya, soliq imtiyozlari va subsidiyalar mexanizmlarini kengaytirish | Ekologik loyihalarga xususiy investitsiyalar jalb etiladi |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

**Raqamli iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy choralar taklif etiladi.**

Birinchidan, “yagona mulk identifikatori” tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda har bir ko‘chmas mulk obyekti, yer uchastkasi, davlat aktivi yoki korporativ ulush yagona raqamli identifikatorga ega bo‘ladi. Bu kadastr, soliq, notariat, bank va sud tizimlari o‘rtasida ma’lumotlarni aniq bog‘lash imkonini beradi.

Ikkinchidan, mulk huquqini tasdiqlovchi elektron hujjatlar yuridik kuchini amalda yanada mustahkamlash

lozim. Elektron reyestrdan olingan ma'lumot mulkdor uchun sudda, bankda, notariatda va davlat organlarida to'liq huquqiy dalil sifatida tan olinishi kerak.

Uchinchidan, intellektual mulk obyektlarini baholash metodikasini takomillashtirish zarur. Dasturiy mahsulot, patent, tovar belgisi, sanoat namunasi va mualliflik huquqi obyektlari korxona aktivlari tarkibida to'liq hisobga olinsa, innovatsion bizneslarning kredit va investitsiya jalb qilish imkoniyati oshadi.

To'rtinchidan, raqamli platformalarda yaratilgan kontent, ma'lumotlar va xizmat natijalariga nisbatan mulkiy huquqlar aniq belgilab berilishi kerak. Bu, ayniqsa, elektron tijorat, onlayn ta'lim, raqamli xizmatlar, IT-autsorsing va media mahsulotlar bozori uchun muhimdir.

Beshinchidan, davlat aktivlarini xususiylashtirish va ijaraga berish jarayonlarida elektron auksionlarning ochiqligi, ma'lumotlar to'liqligi va xaridorlar uchun teng imkoniyatlar ta'minlanishi lozim.

**"Yashil iqtisodiyot" sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi.**

Birinchidan, mulkdan foydalanish samaradorligini ekologik mezonlar bilan baholash tizimini joriy etish lozim. Korxona aktivlarining samaradorligi faqat foyda va daromad bilan emas, balki energiya tejamkorligi, suv tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini qisqartirish ko'rsatkichlari bilan ham baholanishi kerak.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya obyektlarini mulk obyekti sifatida huquqiy rasmiylashtirish va ularni garov, lizing, ijara yoki investitsiya obyekti sifatida iqtisodiy aylanmaga kiritish mexanizmlarini soddalashtirish zarur.

Uchinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalarda ekologik modernizatsiya dasturlarini mulkdorlik siyosati bilan bog'lash lozim. Davlat korxonasi faqat moliyaviy natija emas, balki energiya samaradorligi va ekologik xavfni kamaytirish bo'yicha ham hisobdor bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, yer va suvdan foydalanish huquqlarini raqamli monitoring qilish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish, yer unumdorligi va sho'rlanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar mulkdor yoki foydalanuvchining iqtisodiy rag'batlari bilan bog'lanishi lozim.

Beshinchidan, "yashil" investitsiya loyihalari uchun mulkiy kafolatlar kuchaytirilishi zarur. Investor qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejovchi texnologiya yoki ekologik infratuzilmaga investitsiya kiritganda, yer, uskuna, energiya ishlab chiqarish huquqi va shartnomaviy daromadlari himoyalangan bo'lishi lozim.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish bu global ekologik muammolarni hal qilish, jamiyatning o'sib borayotgan farovonligi va sayyoramizning tabiiy resurslari o'rtasidagi muvozanatni topish hamda saqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston ham Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lini tanladi va bunga faol kirishdi. Sohaga xalqaro tajribalar, ilg'or texnologiyalar va yirik investorlar ushbu loyihalar kelajagiga, hamkorlik istiqbollariga, taklif etilgan imkoniyat va sharoitlarga ishonch bildirib, sarmoya kiritmoqda. Masalan, ACWA kompaniyasining mamlakatimizdagi 19 ta loyihaga kiritgan va rejadagi investitsiyalari hajmi 15 milliard dollarga yetdi [11]. Bu qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishidagi eng yirik xususiy energetika portfelidir. Bugunga qadar O'zbekistonning turli hududlarida o'nlab quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilib, ishga tushirilgan bo'lsa, yana bir qancha loyihalar faol davom ettirilyapti.

Raqamli va "yashil" iqtisodiyot sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi mulk huquqini faqat himoya qilish emas, balki uni raqamli texnologiyalar orqali aniqlash, nomoddiy aktivlarni kapitallashtirish, "yashil" aktivlar bozorini shakllantirish va mulkdorlikni ekologik mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishda raqamli kadastr, intellektual mulk, elektron mulk aylanmasi, yashil moliya, qayta tiklanuvchi energiya aktivlari va ESG boshqaruvi o'zaro bog'liq holda rivojlantirilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Eshnazarov T. Iqtisodiy islohotlar - taraqqiyot tayanchi // Xalq so'zi, 2025-yil 22-dekabr.
2. Xidirova B. Barqaror, xavfsiz, farovon dunyoda yashash istagi // Yangi O'zbekiston, 2025-yil 5-sentabr.
3. Espolov T.I. "Инфравизация – ключевой фактор развития АПК". 2019-y.
4. S.S. G'ulomov. Zamonaviy innovatsiya va texnologik rivojlanish sharoitida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi. Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish. 5–6-son, 2020-yil, dekabr. 4–11-betlar.
5. N. Dehqonova. "Yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa // Yangi O'zbekiston. 2026-yil 1-iyul.
6. https://lex.uz/docs/ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
7. https://www.lex.uz/acts/111466 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni[2].


2 https://lex.uz/acts/-111466

8. https://www.lex.uz/acts/2055680 O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 24.09.2012-yil, O‘RQ–336-son[3].
9. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
10. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
11. Dehqonova N. “Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifa” // Yangi O‘zbekiston, 2026-yil 1-iyul.

3 https://lex.uz/docs/-2055680

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 9/1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz